



SURXONDARYO VILOYATI IQTISODIYOTIDA KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI O'RNINING STATISTIK TAHLILI

Fayziyeva Aziza Azamat qizi
Termiz davlat universiteti
ORCID: 0009-0001-9469-4896
azizajavdat@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada kichik biznes va tadbirkorlikning Surxondaryo viloyati iqtisodiyotidagi o'rni va ahamiyati haqida so'z yuritilgan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni, uning rivojlanishi, iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi, hududning tashqi savdo operatsiyalaridagi o'rni va ahamiyati, hududdagi bandlik darajasiga qo'shayotgan hissalarini kabi statistik ko'rsatkichlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: mikrofirm, kichik korxon, savdo, xizmat ko'rsatish, bandlik, tashqi savdo operatsiyalari, YAHM.

СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ МЕСТА СУБЪЕКТОВ МАЛОГО БИЗНЕСА В ЭКОНОМИКЕ СУРХОНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

Файзиева Азиза Азамат кизи
Термезский государственный университет

Аннотация. В данной статье говорится о роли и значении малого бизнеса и предпринимательства в экономике Сурхандарьинской области. Проанализированы такие статистические показатели, как количество субъектов малого предпринимательства, их развитие, их доля в отраслях экономики, место и значение региона во внешнеторговых операциях, их вклад в уровень занятости в регионе.

Ключевые слова: микрофирма, малое предприятие, торговля, услуги, занятость, внешнеторговые операции, ВНП.

STATISTICAL ANALYSIS OF THE PLACE OF SMALL BUSINESS ENTITIES IN THE ECONOMY OF THE SURKHONDARYA REGION

Fayziyeva Aziza Azamat qizi
Termez State University

Abstract. This article talks about the role and importance of small business and entrepreneurship in the economy of Surkhondaryya region. Statistical indicators such as the number of small business entities, their development, their share in economic sectors, the place and importance of the region in foreign trade operations, and their contribution to the level of employment in the region were analyzed.

Key words: micro-firm, small enterprise, trade, service, employment, foreign trade operations, GNP.

Kirish.

Ma'lumki, jahon iqtisodiyotining jadal rivojlanishida tadbirkorlik sohalari, xususan, kichik tadbirkorlik muhim o'rin tutadi. Jahon iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, aholi farovonligini ta'minlash va bandlik darajasini oshirish, kambag'allik darajasini qisqartirishda kichik biznes va tadbirkorlikning o'rni beqiyos. Kichik korxonalar aksariyat mamlakatlar iqtisodiyotida, xususan, rivojlanayotgan mamlakatlarda katta rol o'ynaydi. Kichik biznes korxonalari butun dunyo bo'ylab korxonalarining aksariyat qismini tashkil qiladi va yangi ish o'rinlari yaratish va global iqtisodiy rivojlanishga muhim hissa qo'shmoqda. Ular butun dunyo bo'ylab korxonalarining qariyb 90% va bandliklarning 50% dan ortig'ini ifodalaydi. Rasmiy, ro'yxatdan o'tgan kichik korxonalar rivojlanayotgan mamlakatlarda milliy daromadning 40% igacha hissa qo'shadi. Hisob-kitoblarga ko'ra, 2030-yilga borib o'sib borayotgan global ishchi kuchini o'zlashtirish uchun 600 million ish o'rni kerak bo'ladi, bu esa kichik korxonalarni rivojlantirishni butun dunyo bo'ylab, ko'plab hukumatlar uchun ustuvor vazifaga aylantiradi. Rivojlanayotgan bozorlarda rasmiy ish o'rinlarining ko'pchiligi kichik va o'rta korxonalar tomonidan yaratilgan bo'lib, ular 10 ish o'rnidan 7 tasini yaratishga xizmat qiladi. Jahon banki ma'lumotlariga qaraganda, «kichik korxonalar Germaniya YaIM ining 55 %, bandlikning deyarli 60%; Xitoyda YaIMning 60%, bandlikning 75%, umumiy soliq tushumlarining 50%, Janubiy Koreyada YaIM ning 60% dan ortig'i, bandlikning 83 % qismi aynan kichik korxonalar tomonidan ta'minlanadi»¹.

Adabiyotlar sharhi.

Tadbirkorlik tushunchasi hozirgi kunda keng qo'llaniladigan tushunchalardan biri hisoblanadi. Bu atamaga turli davr olimlari turlicha ta'rif berishgan. Garchi olimlarning ta'riflari turlicha bo'lsada, ular bir-birini inkor etmaydi, aksincha bir-birini to'ldirish uchun xizmat qiladi. Smitning (1962) biznes va tadbirkorlik shaxsiy foyda olish uchun tavakkalchilik tijorat g'oyasini amalga oshiruvchi mulkdor deb ta'riflaydi. Muldkor ishlab chiqarishni tashkil qiladi, rejalashtiradi, uning natijalarini o'zlashtiradi.

Mashhur amerikalik iqtisodchi Y. Shumpeter (1883-1950) o'zining «Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi» kitobida, tadbirkorni novator (yangilik bunyod qiluvchi odam) deb ta'riflagan (Шумпетер, 1982).

Avstraliyalik iqtisodchi olim Fridrix Fon Xayn (1989) esa tadbirkorlik tushunchasiga boshqacha yondashgan. Uning fikricha, tadbirkorlik faoliyat bo'lmasdan, balki yangi iqtisodiy imkoniyatlarni izlab topish, xatti-harakatlarni ta'minlashdir. Amerikalik olim Xizrich, (1991) «Tadbirkorlik o'z qiymatiga ega bo'lgan qandaydir yangi narsani yaratish jarayoni, tadbirkor esa buning uchun barcha zarur vaqti va kunini sarflaydigan, barcha moliyaviy, psixologik va ijtimoiy xavf-xatarni o'ziga olib, evaziga mukofot sifatida pul va erishilgan yutug'idan qanoatlanuvchi shaxs», – deb ta'kidlaydi.

Respublikamiz iqtisodchi olimlaridan O'lmasov (1995) tadbirkorlikni “kishilarning moddiy va pul mablag'larini amalda xo'jalik oborotiga tushirib, daromad topishga mo'ljallangan iqtisodiy faoliyat” deb ta'riflagan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot metodologiyasi sifatida ilmiy mushohada, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil, prognozlash usullaridan foydalaniladi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Kichik biznes va tadbirkorlik Surxondaryo viloyati iqtisodiyotida alohida o'rin tutadi. Hudud iqtisodiyotining yanada rivojlanishi, aholi bandligi va farovonligini ta'minlashda kichik korxonalarining o'rni beqiyos. Statistik ma'lumotlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, 2024-yilning 1-iyul holatiga ko'ra hududda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 19,4

¹ <http://www.worldbank.org/en/topic/sme/finance>

mingtani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,7 mingga kamaygan yoki 7,9 % ga pasayganligini ko'rishimiz mumkin. Viloyatimiz miqyosida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga 8,9 birlikni tashkil qiladi.

1-jadval

**Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), ming birlikda**

Yillar	2020	2021	2022	2023	2024
Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	19,7	23,7	26,0	21,0	19,4

Manba: surxonstat.uz

Quyidagi keltirilgan jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, Surxondaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2020, 2021 hamda 2022 yillarda o'sgan. Oxirgi ikki yilda esa faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar soni kamaygan. Bu pasayish turli xil omillar ta'sirida ro'y berishi mumkin.

2-jadval

Surxondaryo viloyatidagi kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiyot tarmoqlaridagi ko'rsatkichlari hajmi

Yillar	YAHMda kichik biznes hajmi (mlrd. so'm)	Sanoat (mlrd. so'm)	Qurilish (mlrd. so'm)	Savdo (mlrd. so'm)	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (mlrd. so'm)	Xizmatlar (mlrd. so'm)
2010	2 433,9	192,3	264,4	1234,6	2319,9	653,6
2011	3 850,2	296,5	360,1	1630,5	4120,4	847,9
2012	4 743,6	362,9	478,3	2100,1	4872,3	1088,4
2013	5 510,3	449,2	667,9	2786,0	5453,9	1388,2
2014	6 863,8	608,2	832,1	3571,9	6812,6	1845,6
2015	8 469,1	747,6	1052,8	4337,8	8262,3	2360,0
2016	9 500,0	995,7	1303,7	5604,2	8826,5	3015,2
2017	12 838,2	1204,6	1407,4	6605,9	11763,3	3431,7
2018	17 025,9	1558,6	2336,3	8161,5	15243,9	4563,9
2019	19 843,7	1736,4	3205,1	9740,5	17962,6	4879,9
2020	21 257,7	2413,2	4020,9	11500,2	19264,1	5331,3
2021	25 965,9	3378,6	5086,2	14264,9	22920,8	6938,5
2022	30 106,9	3066,0	6015,4	16832,6	26442,9	8292,3
2023	35 551,3	4137,3	6711,8	20208,1	31679,0	9979,1

Manba: surxonstat.uz

Quyidagi jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, YAHMdagi kichik biznes hajmi yillar davomida oshib borgan. 2020 yilda kichik biznesning YAHMdagi ulushi 71,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilga kelib bu ko'rsatkich 75,2 % ni tashkil etgan.

Kichik biznes hajmining eng yuqori o'sishi sanoatda yuz bergan. 2010 yilda kichik biznesning sanoatdagi hajmi 192,3 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 3 054,0 milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Bu raqamlarni foizda ifodalaydigan bo'lsak, 2010 yilda kichik biznes va tadbirkorlikning sanoatdagi ulushi 25,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilga kelib bu ko'rsatkich 59,2 % ni tashkil etgan. Savdo, qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohasida ham kichik biznesning ulushi ortib borayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiyot tarmoqlaridagi o'rnini judayam katta. Jumladan, tashqi savdo operatsiyalarida kichik korxonalar o'ziga xos o'ringa ega. So'nggi yillarda tadbirkorlik subyektlariga keng imkoniyatlar yaratilishi oqibatida ularning tashqi savdodagi roli yanada oshdi.


3-jadval

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan eksport-import hajmi (mlrd so'm)

Yillar	Eksport (mlrd so'm)	Import (mlrd so'm)
2010	85,34	23,75
2011	131,035	59,95
2012	109,913	111,302
2013	285,159	285,159
2014	117,224	109,716
2015	202,495	52,809
2016	176,735	256,218
2017	885,080	1477,03
2018	1405,12	3013,71
2019	1681,79	2294,03
2020	1412,16	1979,96
2021	1528,01	2012,43
2022	1634,36	1183,11
2023	1944,46	1169,64


Manba: surxonstat.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Tashqi savdo aloqalari hudud iqtisodiyotini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatadigan omillardan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda viloyatimiz miqyosida tashqi savdo operatsiyalari keng miqyosda amalga oshirilmoqda. 2024-yilning yanvar-iyunida viloyatda kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 106 864,7 ming AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 84,9 % ini tashkil etdi. 2024-yilning yanvar-iyunida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 66 979,6 ming AQSH dollarini yoki jami importning 87,8 % ini tashkil etdi.



1-diagramma. 2019-2024-yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, % da

Diagramma ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan eksport hajmi so'nngi yillarda oshgan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi ayrim yillar, jumladan 2020, 2021 hamda 2022 yillar kamayganlining asosiy sababi pandemiya davri hisoblanadi. Koronavirus pandemiyasi ijtimoiy hayotimizning ayrim sohalariga ta'sir etib qolmasdan, iqtisodiyotga ham jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Aynan pandemiya davrida jahon bo'yicha tashqi savdo operatsiyalari dinamikasi kamayganligini ko'rishimiz mumkin.



2-diagramma. 2019-2024-yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, % da

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan sakkizta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Afg'oniston, Pokiston, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi, Singapur, Turkiya, Ozarbayjon va Tojikiston shular jumlasidandir. Qolgan 12 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

Xulosa va takliflar.

Kichik tadbirkorlik hudud iqtisodiyotida o'ziga xos o'ringa ega. Buning yorqin namunasi sifatida kichik biznesning YAHM dagi ulushini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari kichik korxonalar sanoat, savdo, qurilish, investitsiya faoliyatida ham salmoqli ulushga ega.

Tashqi savdo aloqalarida ham mazkur tadbirkorlik turining o'rni beqiyos. Hozirgi kunda Surxondaryo viloyati jahonning 57 ta mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. Tashqi savdo operatsiyasining nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasida, Qozog'istonda, Rossiya Federatsiyasida, Pokiston, Turkiyada, Afg'oniston, Tojikiston va Ukraina kabi davlatlar bilan qayd etilgan.

Adabiyotlar/ Литература/ Reference.

Smit Adam. (1962) *Issledovaniyao prirode I prichine bogatstvo narodov.* –M. Sotsekgiz, - 332-334 S.

Хайн Ф. (1989) *Конкуренция как процедура открытия.* «Мировая экономика и международные отношения» журналы, 12, 36-38-б.

O'lmasov A., Sharifxo'jayev M. (1995) *Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik.* –T.: Mehnat, 192-bet.

Хизрич Р., Пумперс С. (1991) *Предпринимательство.* –М., 20-б.

Шумпетер Й. (1982) *Теория экономического развития.* –М., 29-б.